UDK: 633.854.78:575.17

KUNGABOQARNI F_4 DURAGAY OILALARDA MOYDORLIK BELGICINING VARIATSION TAHLILI

Allamjarova Biybinaz Axmedovna
Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi erkin izlanuvchisi

Aytjanov Baxitjan Uzaqbayevich
Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, Moyli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi laboratoriyasi mudiri q.x.f.d., professor

Kirish: Ma'lumki, kungaboqar navlari urug'ning kattaligiga, moyning miqdoriga va mag'izining chiqishiga ko'ra quyidagi 3 ta kenja turlarga bo'linadi. Chaqiladigan kungaboqar poyasi yo'g'on, balandligi 4 metrgacha, bargi va savati yirik, diametri 45 santimetrgacha. Pistasi uzun 11-23 millimetr, eni 7,5-12 millimetr. Mag'zi pistasining yarimini egallaydi. 1000 ta donasining vazni 100-170 gramm bo'ladi. Moyli kungaboqar poya balandligi 1,5-2,5 metr, shoxlanadi, savatlar soni ko'p bo'ladi. Savatning diametri 14-20 santimetr. Pista uzunligi 7-13 millimetr, yeni 4-7 millimetr. Mag'zi pistani butunlay egallaydi. Po'chog'i 40-43 foiz bo'ladi. 1000 ta donasining vazni 35-80 gramm. Oraliq kungaboqar bu yuqorida bayon etilgan kenja turlarning o'rtasida oraliq o'rinni egallaydi. Ba'zi belgilari balandligi, bargining va savatining yirikligi, shakli bo'yicha chaqiladigan turiga yaqin hisoblanadi. Ayrim belgilari bilan pistaning maydaligi, to'liqligi bo'yicha moyli kungaboqarga yaqinlashadi. Bu turi ishlab chiqarishda ekilmaydi.

Kungaboqar seleksiyasi yo'nalishi bo'yicha dunyoda ko'pgina olimlar juda katta muvaffaqiyatlarga erishilgan, kungaboqar o'simligini tubdan o'zgartirib serhosil, yuqori moydor va boshqa kimmatli xo'jalik belgilar hamda xususiyatlarga ega yangi navlar yaratgan. Bu navlar asosida kungaboqarning ekin maydoni jahonda kengayib o'sib bormoqda.

D.T Abdukarimov. M.Q Lukov [1] ning olib borgan tadqiqotlarining ko'satishicha kungaboqar navlarini yaratish seleksiyasi jarayonining ko'chatzorlar va nav sinashlarida navlar va namunalar har tomonlama sinaladi va baholanadi. Seleksiya ishining barcha bosqichlarida urug'ning moyliligi va kasalliklarga chidamlilik albatta baholanadi.

Amanova A. Holtoyev T. Rustamov A. [3]. larning ma'lumotlaricha Kungaboqarning murakkab populyatsiyalarda yuqori moylilik yo'nalishida cheksiz tanlashning muvaffaqiyati genlarning additiv harakatini ko'rsatadi. Yuqori moylilik shakllarni kam moylilik bilan chatishtirganda duragaylarning birinchi bo'g'inida (F_1) yuqori moylilik ustun (dominant) turadi, ya'ni getrozisli nasl ko'zatiladi. Yadroli erkak pushtsizlik gulning germofriditlik xiliga nisbatan resessiv holatda bo'lib, odatda nasldan naslga monogen (ms ms) holatda o'tkaziladi, shu bilan bir vaqtda digenli nazorat va genlarning epistatik o'zaro harakatlari holatlari ham ko'zatilgan.

Materiallar va uslublar: Ilmiy tadqiqot ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, Moyli ekinlar selektsiyasi va urug'chiligi laboratoriyasida olib borildi. Ilmiy izlanishlar uslubiy asos sifatida qabul qilingan "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" qo'llanmaga asoslangan holda olib borildi. Ma'lumotlarning statistik tahlili B.A.Dospexovning "Metodika polevogo opita" [3] uslubi bo'yicha hisoblandi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Natijalar va munozara: Bizning tajribalarimizda esa Rossiya kungaboqar navlaridan foydalanib Qoraqalpog'iston sharoitiga moslashgan sermahsul va yuqori moydorlilik hususiyatiga ega bo'lgan oddiy va murakkab duragaylash asosida olingan moydorlik belgisi bo'yicha qo'yidagicha variatsion tahlil qilindi.

Moydorlik belgisi bo'yicha o'rganilgan F_4 oddiy va murakkab duragay oilalarda variatsion qator 8 sinflarda (K=1) uchraganligi ushbu belgi oddiy duragay oilalarda 49,3-50,7 foizni, murakkab duragaylarda esa 50,2-50,8 foizgacha o'simliklar variatsion qatorda turlicha, ya'ni murakkab duragaylarda nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan o'simliklar joylashganligi aniqlandi 1-jadval.

Tajribalarda o'rganilgan 6 ta oddiy duragaylardan moydorligi eng yuqori, ya'ni 52 gramm va undan yuqori 28 ta oilalarni tashkil etdi. F_4 oddiy duragay oilalar ushbu belgi bo'yicha 4-6 sinflarda, ya'ni 49,3 foizdan, 50,7 foizgacha oilalardagi o'simliklar joylashganligi ma'lum bo'ldi. Moydorligi nisbatan past bo'lgan oilalar F_4 (Tel's x KK-1) duragay oilalarda 49,9 foiz va F_4 (Ak-12/95 x KK-1) duragay oilalarda 49,8 foiz bo'lib, 35-36 tadan oilalar mavjud bo'ldi.

Moydorlik belgisi bo'yicha 3 ta murakkab F_4 duragay oilalarda asosiy o'simliklar 5-6 sinflarda 51,2 foizdan F_4 [F_1 (Sor Gollips x KK-1) x (F_1 (Tel's x KK-1)], 50,2 foizgacha F_4 [F_1 (S-NS-N-2011 x KK-1) x F_1 (S-Al'stor x KK-1)] duragay avlodlarda bo'ldi. Ushbu belgi bo'yicha transgressiv o'simliklar oddiy duragay oilalarga nisbatan murakkab duragay oilalarda ko'p ajralib chiqqanligi aniqlandi.

Xulosa va tavsiyalar: Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, kungaboqarni murakkab duragaylash o'zining yuqori geterozigotalik orqali transgressiv oilalarida o'simliklarni paydo bo'lishiga asos bo'ldi hamda variatsion qatorning o'ng tomonida joylashgan moydorligi kabi qimmatli xo'jalik belgilari ijobiy bo'lgan oilalar tanlab olindi. Ma'lumki, Respublikamizda kungaboqar navlarining asosiy ko'rsatkichlaridan biri tezpisharlik bo'lib, asosiy qimmatli xo'jalik belgilarini ijobiy bo'lishida katta ahamiyat kasb yetadi. Chunki vaqtli yig'ib olingan hosil sifatli va o'ta pishgan holatda bo'ladi. Bundan tashqari tezpishar navlar bir mavsumda ikki marotaba hosil olishga asos bo'ladi va bug'doydan so'ng ekiladigan asosiy ekin sifatida imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdukarimov D.T. Lukov M.K, Lukova I. «Kungaboqar seleksiyasida nav va namunalash va geterozisdan foydalanish» Moyli va tolali ekinlarni yetishtirish istiqbollari va ularning maxsuldorligini oshirish masalalari mavzusidagi Res ilm-amal anjumani ma'ruzalari asosidagi mak. to'p. T.- 2013 yil. B. 73-75.
2. Amanova A., Holtoyev T., Rustamov A. Kungaboqarning istiqbolli tezpishar navlari. // O'zbekiston q/x jurnali. № 4. 2005. B. 25-26.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М.: "Агропромиздат", 1985. С. 251.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.